

## AVESTO TA’LIMOTIDA DUNYONING FALSAFIY-AXLOQIY MANZARASI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-22-305-309>

*Mustafoyeva Mushtariy Zohidjon qizi*

*TDSHU, Sharq falsafasi va madaniyati mutaxassisligi*

*1-kurs magistranti*

*Ilmiy rahbar: f.f.d., professor Izzetova E.M.*

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada “Avesto” ta’limoti asosida dunyoning falsafiy-axloqiy manzarasi tahlil qilinadi. Unda qadimgi eroniy tafakkurga xos bo’lgan yaxshilik va yomonlik o’rtasidagi dualistik qarashlar, insonning axloqiy tanlovi, borliq va mavjudotlarning ma’naviy mohiyati ochib beriladi. Shuningdek, Avestoda insonning kosmik tartibdagi o’rni, uning ezgulikni tanlash orqali olam uyg’unligiga qo’shgan hissasi yoritiladi. Maqolada zardushtiylikning asosiy g’oyalari – “Ezgu fikr, ezgu so’z, ezgu amal” tamoyili asosida axloqiy kamolot masalalari ko’rib chiqiladi. Natijada, Avesto ta’limoti nafaqat diniy, balki chuqur falsafiy va axloqiy tizim sifatida talqin etiladi.

*Kalit so’zlar:* Zoroastrizm, Avesto, dualizm, inson konsepsiyasi, antropologiya, Chinvat ko’prigi, ontologik yondashuv, ezgulik va yovuzlik, axloqiy tanlov, ma’naviy qadriyat.

Qadimgi Sharq tafakkuri tarixida muhim o’rin tutuvchi “Avesto” nafaqat diniy manba, balki chuqur falsafiy va axloqiy qarashlarni o’zida mujassam etgan noyob yodgorlikdir. Unda borliqning yaratilishi, insonning mohiyati va uning hayotdagi o’rni masalalari keng yoritilgan. Ayniqsa, yaxshilik va yomonlik o’rtasidagi abadiy kurash g’oyasi ushbu ta’limotining markaziy muammolaridan biri hisoblanadi. Qadimiy manba asosida dunyoning falsafiy-axloqiy manzarasi, insonning axloqiy tanlovi va uning kosmik tartibdagi o’rni ifodalangan. Ayniqsa, mazkur manbada shakllangan dualistik g’oya – ezgulik va yovuzlik o’rtasidagi abadiy kurash konsepsiyasi inson masalasini markaziy muammolardan biriga aylantiradi. “Avesto” ta’limotida inson nafaqat tabiiy mavjudot, balki axloqiy tanlov qilish qobiliyatiga ega bo’lgan mas’ul subyekt sifatida talqin etiladi. Uning hayotdagi har bir harakati kosmik tartib va ma’naviy muvozanatga bevosita ta’sir ko’rsatadi. “Avesto” Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi, boy tarixiy davrlaridagi moddiy va ma’naviy hayoti, diniy qarashlari, olam va inson to’g’risidagi tasavvurlarini, qadriyatlarini bayon etuvchi manbadir. ““Avesto”da miloddan avvalgi XIII asrdan milodning IV asrigacha bo’lgan tarixiy voqealar yoritilgan. Ota-bobolarimizning aql-zakovati va qalb mahsuli bo’lgan ushbu noyob yodgorlik, turli zamon to’fonlari va murakkab sinovlaridan o’tib, bizning davrimizgacha yetib kelgani, hududimizda qadimgi boy madaniyat mavjud bo’lganini tasdiqlaydi”[2, 118]. “Avesto” insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimgi yozma yodgorliklaridan biri bo’lib, unda inson muammosi markaziy o’rin egallaydi. Insonlarni ma’naviy yuksalishga chaqirish, mehr-oqibatni mustahkamlash, ezgu

g'oyalar asosida hayot kechirish kabi jihatlar alohida e'tibor qaratilgan. Inson Ezgulik va Yovuzlik o'rtasidagi kurashda faol ishtirokchi ekan u “ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal” tamoyiliga amal qilishi zarurdir. Insonning ma'naviy borlig'i aynan shu uch tamoyilga mos tarzda shakllanishi darkor. Shu bilan bir qatorda, inson erkin irodaga ega bo'lib, u o'z tanlovi bilan kosmik tartibga ham ta'sirini o'tkazadi. Hayot davomida esa ruhiy va jismoniy birlikka ega insonda ikkisi bir-biriga uyg'un holatda hayot kechirmog'i lozimdir. Shuningdek, antik va o'rta asrlar falsafasidan farqli o'laroq, Zardushtiylikda insonni taqdirning ojiz qurboni emas, balki koinotdagi ikki buyuk kuch hisoblangan Ezgulik va Yovuzlik o'rtasidagi kurashning hal qiluvchi omili sifatida baholanadi. “Zardushtiylik dini dualizm, ruh va moddiy hayotning uyg'unligi tamoyiliga asoslanadi; unda butun olam yorug'lik va zulmat, hayot va o'lim, tana va jon, yaxshilik va yomonlik, erkinlik va tobelik kabi qarama-qarshi hodisalar o'rtasidagi azaliy va abadiy kurashga qurilgan” [2, 118]. Bu jumlar “Avesto”da ontologik, aksiologik va antropologik mohiyatlarning mavjud ekanligini asoslab turibdi.

Ahura Mazda va Anhra Manu kabi xudolar timsoli ikki kuch Ezgulik va Yovuzlikdir. Ahura Mazda ezgulikni, nur va haqiqatni namoyon etsa, Anhra Manu yovuzlik va zulmat kuchi sifatida tasvirlanadi. “...Ahura Mazda butun olamni, yerni, suvni, o'simliklarni, hatto dastlabki odamni ham yaratgan emish. Butun tirik mavjudot, hayotni ham Ahura Mazda kashf etibdi” [1, 33]. Olam haqidagi barcha qarashlar aynan shu ikki xudo obrazi orqali namoyon etilgan. Borliqning asosiy tamoyili esa “asha” va “druj” o'rtasidagi kurashdir. Bu ikki tamoyil ikki asosiy kuchning tashkil etuvchilaridir. “Asha” haqiqat va kosmik tartib, “Druj” esa unga zid turuvchi yolg'on va tartibsizlikdir. “Asha” haqiqat hisoblanadi va “Majoziy ma'noda, bu so'z boshida Ahura Mazda tomonidan yaratilgan dunyoning oliyjanob tartibini anglatadi” [3, 58]. Zardushtiylikka ko'ra olam uch darajada baholanadi. Ular ruhiy olam, moddiy olam va ularning o'zaro aloqasi. Inson bu ikki olam o'rtasida vositachi mavjudotdir. Insonning har bir yaxshi amali kosmik tartibni mustahkamlaydi, yomon amallari esa yovuz kuchlarni kuchaytiradi. Shuning uchun, inson nafaqat o'z hayoti, balki butun borliq taqdiri uchun mas'ul sanaladi. Umuman olganda, “Avesto”da inson faol, mas'uliyatli va axloqiy mavjudot sifatida ko'riladi. Ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi abadiy kurash maydoni mavjud bo'lib, inson bu jarayonning markaziy subyektidir.

Insonning antropologik mohiyatini keng-ko'lamlı tizimlashtirilgan tarzda bilsak bo'ladi. Masalan, “Avesto”ning o'zida axloqiy, kosmik, ijtimoiy va esxatologik jihatlarini uchratamiz. “Avesto”da insonning axloqi birinchi o'rinda turadi. Bunda yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi erkin tanlovda namoyon bo'ladi. “Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal” tamoyiliga tayangan holatda inson o'z amallari orqali borliqdagi tartibga ta'sir o'tkazadi. Axloqi yuksak inson bergan so'zining ustidan chiqqan, unga muvofiq amalda bo'lgan hisoblanadi. Mazkur ta'limotda dunyoning axloqiy manzarasi inson, jamiyat va borliq o'rtasidagi chuqur uyg'unlik asosida talqin etilib, uning markazida ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi abadiy kurash g'oyasi yotadi. Bu qarashlarga ko'ra, borliq tasodifiy emas, balki qat'iy axloqiy qonuniyatlarga bo'ysunuvchi tartibli tizimdir. Unda inson alohida o'rin egallab, mas'uliyatli va ongli

mavjudot sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan, inson passiv emas, balki olamdagi muvozanatni saqlash yoki buzishda faol ishtirok etuvchi axloqiy kuch hisoblanadi. Insonning har bir ezgu amali yaxshilik kuchlarini mustahkamlaydi, salbiy xatti-harakatlari esa yovuzlikning kengayishiga olib keladi. Demak, axloqiylik bu yerda faqat shaxsiy xususiyat emas, balki umumiy borliq tartibiga bevosita ta’sir etuvchi omil sifatida talqin qilinadi. Shu sababli insondan doimiy ravishda o‘z ustida ishlash, ichki poklikni saqlash va haqiqat yo‘lidan og‘maslik talab etiladi. Natijada, ushbu falsafiy qarashlar tizimi axloqiy me’yorlar yig‘indisidan ko‘ra kengroq mazmunga ega bo‘lib, u inson faoliyatini boshqaruvchi, uni ezgulikka yo‘naltiruvchi va borliq uyg‘unligini ta’minlovchi universal g‘oyaviy asos sifatida namoyon bo‘ladi.

Kosmik antropologiyaga ko‘ra inson kosmik kurashning bir qismidir. Ezgulik kuchlari xudo Ahura Mazdaga bog‘liq va yovuzlik kuchlari Anhra Manu xudo orqali ifodalanadi. Insonning har bir qarori shu kurashning natijasiga ta’sir qiladi. Shu sababli inson mikrokosmos sifatida qaraladi. “Zardushtiylik e’tiqodning barqarorligini dunyoda ezgulik tamoyillarining kafolati sifatida ko‘rsatdi. E’tiqod faqat insonlarga xosdir. Shunday qilib, Zardushtiylikda yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi tanlovni inson ixtiyoriy ravishda amalga oshiradi, hech kimni yomonlikdan voz kechishga majburlamaydi. Borliqning universalligi insonga ezgulikni asrab-avaylash mas’uliyatini yuklaydi, bir so‘z bilan aytganda, Ahura Mazda yaxshilikni saqlash vazifasini bajaradi” [3, 59]. Inson borlig‘ida diniy bilimning yuqori ekanligi shu yerda ochiqlab beriladi. Asosan, inson tanlov holatiga kelganda imon-e’tiqodli kishi hamisha yaxshilik tomonida turgan, aksincha bo‘lsa yomonlikni tanlagan insonlar qatorida bo‘lgan. Inson Ahura Mazda tarafidan yuborilgan pand-nasihati va axloq normalariga amal qilsa, yaxshilik doimo yomonlik ustidan g‘alaba qilgan.

Ijtimoiy yondashuvda esa “Avesto” insonni jamiyatdan ajratmaydi. Oila, poklik, mehnat va halollik qadrlanadi. Jamiyatdagi tartib kosmik tartibning aksidir. Axloqiy poklik diniy va ijtimoiy qadriyat sifatida qaraladi. “Zardushtiylik ta’limotida tinchlik-osoyishtalik barqaror bo‘lgan hayot haqiqat ramzi hisoblanadi. “Avesto” (“Yasna”) da ta’kidlanishicha, kishilar tinch-osoyishta yashamoqliklari, mehnat qilmoqliklari uchun ular turmush tarzidan urush, talonchilik, nohaqlik, ta’magirlik, shavqatsizlik, g‘arazgo‘ylik, hasadgo‘ylik, shuhratparastlik, qonunbuzarlik kabi yaramas illatlarni surib chiqarmoq lozim” [1, 38]. Oila va axloqiy masalalarni bajarish qat’iy sanalgan va ana shu davrning qasamyodi kabi baholangan. Agarda bunday amallarga zid harakatlar qilinsa gunoh deb topilgan. Zardushtiylikda insonning insonga munosabati ma’lum bir qoliplar orqali boshqarilmagan, balki muvozanatda bo‘lish insonlarning o‘z zimmasiga yuklatilgandir. Shu o‘rinda, inson eng ulug‘ zot va uning izzat-nafsi hurmat qilinishi lozimligi ham ta’kidlanadi.

“Avesto”ning “Yasna” qismi asosan ijtimoiy masalalarni bayon etar ekan, unda davlat boshqaruviga doir qarashlar yetarlicha yoritilib berilgan. Unga ko‘ra “Yaxshi, oliyjanob rahbar el, xalq boyligi, baxti hisoblansa, yomon rahbar odamlar boshiga bitgan balodir” [1, 37] deb izohlanadi. Bu yerda davlat rahbari (oqsaqol, kayvoniy) shaxsiga urg‘u berilmoqda. Rahbar hamisha jamoa manfaatini himoya qilishi, jamoa

tarafida bo‘lishi shartdir. Agarda boshqaruvchi yomon rahbar bo‘lsa, unda qutulish kerakligi ham “Avesto”da keltiriladi.

Esxatalogik (oxiratga oid) qarashlar “Avesto” da inson hayoti o‘limi bilan tugamaydi, balki ruh o‘limdan keyin baholanadi. Aynan bunda Chinvat ko‘prigi, vafot etgandan keyingi bosqichlar yorilib beriladi. Yaxshi amallar najotga, yomon amallar jazoga olib boradi va ezgulikning g‘alabasi bilan bog‘lanadi. Ezgulik esa Ahura Mazda yaratgan Mitra xudosi orqali namoyon bo‘ladi. “Zardushtiylikda ma‘bud Mitra (Mehr) – Ahura Mazda yaratgan ezgu borliqning himoyachisi, xudo oldida imonli insonning ahdu paymoni ijrochisi ustidan nozir” [4, 399]. Ezgulik va Yovuzlikning ustunligi har bir jarayonda o‘zini ta‘sirini ifodalab turgan.

Insonning vafot etgan so‘ng muqaddas sanalgan tuproqqa qo‘yish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan. Xususan, inson yaxshi va yomon amallar bilan yashaganmi tuproqni tanasining go‘шти bilan buzmasligi keltiriladi. Shuning uchun marhumning suyagi ajratilgan holatda tuproqqa qo‘yilgan. Bu jarayonlarda tuproq, suv, havo va olovning muqaddaslik ahamiyati kuchlidir. ““Avesto” kitoblaridan biri – “Yasht”da ta‘kidlanishicha, inson o‘lgandan so‘ng, uning butun umri davomida qilgan ishlariga adolatli baho berilmog‘i darkor. O‘limdan so‘ng marhum bilan vidolashilayotgan eng so‘nggi kezlarda uning bosib o‘tgan hayot yo‘li adolat tarozisiga qo‘yiladi” [1, 32]. Zardushtiylikka ko‘ra inson vafot etgandan uch kun o‘tib uning ruhi tanani tark etadi deyiladi. Shundan so‘ng uning qilgan amallari adolat tarozisida o‘lchanadi. Unga ko‘ra, marhumning qilgan amallari yaxshilik va yomonlik jihatlariga ko‘ra ikki pallaga taqsimlanadi. Tarozi taqqoslangan holatda keying bosqichga o‘tladi. “Chinvat” ko‘prigidan o‘tish ham marhumning amallariga ko‘ra kechadi. Agarda marhum yaxshi amallar bilan hayot kechirgan bo‘lsa bu ko‘prikdan oson o‘tadi, aksincha yomon amallari tarozida og‘irroq kelsa ko‘prikdan o‘tishi qiyinlashadi. Ko‘rib turganimizdek, bu jarayonlar islom dini amallariga juda ham o‘xshashdir. Islom dinida ham oxirat masalalari mavjud va vafot etgan insonning “Sirot” ko‘prigidan o‘tishiga doir qarashlar bir-biriga juda yaqin.

Xulosa qilib aytganda, “Avesto” ta‘limoti dunyoning o‘ziga xos falsafiy-axloqiy manzarasini yaratadi. Unda borliq ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi doimiy kurash maydoni sifatida talqin etiladi. Inson esa ushbu kurashda faol ishtirok etuvchi va axloqiy tanlov orqali olam taqdiriga ta‘sir ko‘rsatuvchi mavjudot sifatida namoyon bo‘ladi. “Avesto”ning axloqiy tamoyillari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, insonni ezgulikka, adolatga va ma‘naviy poklikka chorlaydi. Ushbu ta‘limotda borliq Ahura Mazda va Angra Mainyu o‘rtasidagi qarama-qarshilik asosida talqin etilib, inson aynan shu kosmik kurashning markaziy ishtirokchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Antropologik jihatdan inson jism va ruh birligidan iborat bo‘lib, unga erkin iroda va axloqiy tanlov imkoniyati berilgan. Bu qarashlar insonning ma‘naviy kamoloti, mas‘uliyati va ezgulik yo‘lini tanlash zaruriyatini asoslab beradi hamda bugungi kunda ham falsafiy-antropologik tafakkur uchun muhim nazariy ahamiyat kasb etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Choriyev.A. Inson falsafasi. Inson to‘g‘risidagi falsafiy fikrlar taraqqiyoti. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. – 416 b.
2. Ibragimova.F.O. “Avesto” ta’limotida ma’naviy-axloqiy qadriyatlar // Ta’lim fidoyilari. 2026, №1. – B. 117-124.
3. Ishoqov.M.M. Zaratxushtra (Zaratxustr) shaxsiyati haqida bir nechta izohlar // European journal of social sciences studies. 2019, №4. – P. 55-65.
4. Urazova.R. Avesto yashlarida Mitraning sifatleri // Ilmiy axborot. 2023, №1. – B. 398-403.
5. Urazova.R., Yusupova.R., Ernazarov.O., Alidjanova.N., Gafurova.I., Berdiyev.K. Socio-historical foundations of the monotheismo (Ahura Mazda) in ghats of Avesta // Synesis. 2021, № 16 (1). – E. 2971-527-2971-553.
6. Абдалов У. М., Матниязович У. М., Матчонов Ж. Ю., Алимова Г. Б. Reflecting of zoroastrizm in mourning ceremonies by Uzbeks of Khorezm region // Молодой учёный. 2014, № 2 (61). – С. 620–623.
7. Пўлатова.Д., Қодиров.М., Ахмедова.М., Абдуҳалимов.А., Сулаймонов. Ж., Шозамонов. Ш., Шарқ фалсафаси: ўқув қўлланма. – Тошкент: «Жаҳон принт», 2011. – 516 б.